

“Kelajak soati” darsining 9-11 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

6-mavzu: “Gadgetlar va tahdidlar”

Annotatsiya: Mazkur mashg‘ulot 9–11-sinf o‘quvchilarini zamonaviy texnologiyalar – ayniqsa, gadgetlardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan axborot xavfsizligi va psixologik tahdidlar haqida xabardor qilishga qaratilgan. Gadgetlar hayotning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, o‘quvchilarni ulardan oqilona, xavfsiz va mas’uliyatli foydalanishga o‘rgatish juda muhim. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar gadgetlar bilan bog‘liq asosiy tahdidlar haqida chuqur bilim oladilar.

Dars maqsadi: O‘quvchilarning texnologiyalarga bo‘lgan munosabatini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, gadgetlardan foydalanishda mas’uliyat, me’yor va muvozanat tamoyillarini anglashga yordam berish. Mashg‘ulot davomida ular texnologiyalarning inson psixologiyasi, muloqot madaniyati va hayot tarzi bilan bog‘liq ta’sirini muhokama qilib, shaxsiy tajribalar asosida xulosalar chiqaradilar.

Umumiy maqsad:

O‘quvchilarga gadgetlardan foydalanishda yuzaga keladigan tahdidlar haqida tushuncha berish. Oqilona va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. Internetdan foydalanish madaniyati va raqamli etika haqida fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, ularni ishlatishdan kelib chiqadigan xavf-xatarlardan xabardor qilish, himoyalash ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatish.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilar gadgetlar va zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq asosiy xavf-tahdidlarni aniqlay olish.
2. Gadgetlardan ongli, mas’uliyatli va xavfsiz foydalanish qoidalarini tushunish.
3. Virtual hayot va real hayot o‘rtasidagi farqni anglash.
4. Texnologik vositalardan foydalanishda axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat haqida o‘z fikrlarini bildirish.
5. Tahlil qilish, muammoni ko‘rish va unga yechim taklif qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

 **Asosiy g‘oyalar:** Onlayn madaniyat, axborot madaniyati, kiberxavfsizlik kabi tushunchalar yoshlar hayotining bir qismiga aylanmoqda. O‘quvchilar gadgetlardan foydalanishda chegarani his qilishni, ularni foydali maqsadlarda ishlatishni o‘rganishadi.

☞ *“Xavfsiz internet — o‘z xatti-harakatlaringdan boshlanadi.” , E’tiborli bo‘l — har bir ma’lumot ortida xavf bo‘lishi mumkin!”*

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchalar darajasida:

- Gadgetlar va raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qila oladi.
- Tahdid tushunchasini to‘g‘ri anglab, virtual xavf turlarini ajrata oladi.
- Gadgetlardan foydalanishning me‘yorlari, chegaralari va xavfsizlik qoidalarini tushunadi.
- Virtual va real hayot o‘rtasidagi tafovutni tushunadi, ulardagi muloqot sifatini solishtira oladi.
- Axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, mediaxavfsizlik kabi tushunchalarni o‘zlashtiradi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O‘quvchilar gadgetlardan oqilona va me‘yorda foydalanishga nisbatan ijobiy hissiyotlar shakllantiradilar.
- Texnologik tahdidlar va zararlar haqida fikrlashda ehtiyotkorlik va mas’uliyatni his qiladi.
- Virtual muhitdagi noxush vaziyatlarga (kiberbulling, yolg‘on axborot) qarshi hamdardlik va tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi.
- Real hayotdagi samimiy muloqot va insoniy qadriyatlarni yuqori baholaydi.
- Texnologiyalarni mas’uliyat bilan qo‘llash orqali o‘zini va atrofdagilarni hurmat qilish, himoya qilish zarurligini anglaydi.

3. Amaliy ko‘nikmalarda:

- Gadgetlardan xavfsiz va samarali foydalanish ko‘nikmalarini egallaydi.
- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda xabarlariga tanqidiy yondashish va axborot manbalarini tekshirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.
- Onlayn muhitda odoq-axloq qoidalariga amal qilishni amalda qo‘llay oladi.
- Gadgetlardan foydalanish vaqtini rejalashtirish va nazorat qilish ko‘nikmasini o‘zlashtiradi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O‘zaro hurmat va mas’uliyatni his qilib, virtual muhitda ham ijtimoiy me’yorlarga rioya qiladi.
- Gadgetlardan noto‘g‘ri foydalanish oqibatlarini tushunib, boshqalarni ham ogohlantirishga intiladi.
- Jamiyatda texnologiyalar roli va ularning ijtimoiy ta’siri haqida fikr almashish, muammolarni muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Onlayn va oflayn do‘stlik, muloqotlar orasidagi farqni anglab, real hayotdagi ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga intiladi.
- O‘zining va boshqalarining texnologiyalarga bo‘lgan munosabatini sog‘lomlashtirish uchun mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘ladi.

Metapredmet: bu ta’limda o‘quvchilarga raqamli xavfsizlik, parol yaratish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish haqida tushuncha berish bilan birgalikda, **hayotiy vaziyatlar va vaqtni to‘g‘ri tashkil qilish ko‘nikmalarini** shakllantirishga, gadgetdan foydalanishda odob-axloq qoidalariga amal qilishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “Gadgetlar” darsida:

- Gadgetlar va texnologiyalar asoslari, internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik tushunchalari (AKT),
- Virtual muloqotda kommunikatsiya madaniyati, onlayn etiket qoidalari, fikrlarni aniq va samarali ifoda etish. (muloqot),
- Gadgetlar orqali tabiat, jamiyat, sog‘liqqa ta’sir haqida mulohaza yuritadi (tarbiya va atrof-muhit) — bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir.**

 **Dars hamkori:** O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. info-tashxis.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parcha va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to‘plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;

Dars tuzilishi

1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o‘quvchilarga gadgetlar haqida tushuncha berish va o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Yuqori sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks materialni ko‘rish va so‘rovnoma o‘tkazishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga videolavha namoyish etiladi va tahlil qilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.